



# NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI QARORI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2022 - yil 30 - iyul

115-5-74-Q/22

Nurota tumani hokimligi

## **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-299-sonli qarorini ijrosini ta‘minlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta‘minlash borasida ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va ularning bandligini ta‘minlash, ijtimoiy moslashuviga hamda kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga amaliy ko‘maklashish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25 moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-299-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish masalasini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyalarning namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketini berish masalasini ko‘rib chiquvchi Nurota tuman idoralararo doimiy komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Nurota tuman Moliya bo‘limi (S.Haydarov):

2022-yil 1-sentabrga qadar idoralararo komissiya faoliyatini tashkil etish uchun zarur multimedia materiallari, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa asbob-uskunalar bilan ta‘minlash;

2022-yil va keyingi yillar uchun tegishli byudjet parametrlarini shakllantirishda ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish bilan bog‘liq

xarajatlarni nazarda tutib borish choralarini ko'rsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**A.Fayziyev**

Nurota tuman hokimining  
2022 yil 30 iyuldagi  
115-5-74-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish bo'yicha dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketini berish masalasini ko'rib chiquvchi Nurota tuman idoralararo doimiy**

**KOMISSIYASI TARKIBI**

	<b>F.I.Sh</b>	<b>Tashkilot nomi va lavozimi</b>
1	A.Fayziyev	Nurota tuman hokimi, Komissiya raisi
2	A.Bo'riyev	Nurota tuman hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari, Komissiya raisi o'rinbosari
3	U.Abdurahmonov	Nurota tuman IIB boshlig'i
4	I.Amonov	Nurota tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori
5	S.Haydarov	Nurota tuman Moliya bo'limi mudiri
6	G.Bobomurodova	Nurota tuman oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i
7	A.Shokirov	Nurota tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i
8	H.Qarshiboyev	Nurota tuman mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi rahbari
9	O'.Fayziyev	Nurota tuman IIB probatsiya bo'limi katta inspektori, Komissiya kotibi

**Izoh:** Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.